“TASDIQLAYMAN”

“Agrobank” ATB

Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b.



V.A.Ochilov

2026 yil “17” noyabr

Kontragentlarni tekshirish axborot tizimidan (xizmatidan) foydalanish huquqini berish, uni bankning ichki axborot tizimlari bilan integratsiya qilish va texnik qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini xarid qilish bo‘yicha

TEXNIK TOPSHIRIQ

1. Umumiy ma’lumotlar

Buyurtmachi	«Agrobank» aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o‘rinlarda – Bank)
Xarid predmeti	Kontragentlarni tekshirish axborot tizimidan (keyingi o‘rinlarda – Xizmat) foydalanish huquqi, Xizmatni bankning ichki tizimlari bilan integratsiya qilish va texnik qo‘llab-quvvatlash
Xizmat ko‘rsatish muddati	Xizmatga kirish imkoniyati taqdim etilgan kundan boshlab 5 yil (besh yil)
Foydalanuvchilar soni	Foydalanuvchilar soni cheklanmagan (4-bo‘limga muvofiq), API orqali so‘rovlar soni cheklanmagan
Mas’ul bo‘linma (texnik topshiriq tashabbuskori)	Komplayens nazorat departamenti
Kelishuvchi bo‘linmalar	Axborot texnologiyalari departamenti, Axborot xavfsizligi departamenti

2. Atamalar va qisqartmalar

Atama	Ta’rif
Kontragent	Bank bilan shartnomaviy munosabatda bo‘lgan yoki bo‘lishi rejalashtirilayotgan yuridik shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor yoki jismoniy shaxs (yetkazib beruvchi, pudratchi, mijoz, hamkor)
STIR / JSHSHIR	Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami / Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami
IFUT	Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat klassifikatori
KYC / KYB	Mijozni bilish (Know Your Customer) / Biznesni bilish (Know Your Business) tamoyillari
PEP	Siyosiy ahamiyatga ega shaxslar (Politically Exposed Persons), ularning oila a’zolari va yaqin aloqadorlari
Benefitsiar egasi	Yuridik shaxsga bevosita yoki bilvosita egalik qiluvchi yoki uni nazorat qiluvchi yakuniy jismoniy shaxs
Salbiy axborot (adverse media)	Ochiq manbalardagi kontragentning obro‘siga, jinoiy, korrupsion yoki boshqa huquqbuzarliklarga aloqadorligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar
ABS	Bankning avtomatlashtirilgan bank tizimi
API / Webhook	Dasturiy interfeys / Hodisa yuz berganda tashqi tizimga avtomatik bildirishnoma yuborish mexanizmi
SLA	Xizmat ko‘rsatish darajasi bo‘yicha kelishuv (Service Level Agreement- Xizmat ko‘rsatish darajasi to‘g‘risidagi kelishuv)
Sandbox	Integratsiyani sinash uchun ajratilgan test muhiti

3. Xizmatni xarid qilishdan maqsad va vazifalar

Xizmatni xarid qilishdan maqsad – Bank faoliyatida kontragentlarni tekshirishning yagona, avtomatlashtirilgan va hujjatlashtirilgan tizimini joriy etish orqali yuridik, moliyaviy, sanksiyaviy, korrupsiya va obro‘ xavflarini kamaytirish hamda quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar talablari ijrosini ta’minlashdir:

- “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni;
- “Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat” qoidalari (ro‘yxat raqami 2886, 2017-yil 23-may);
- “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Bank siri to‘g‘risida”gi, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi va “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari;

Xizmat quyidagi vazifalarni hal etishi lozim:

- xarid siklining barcha bosqichlarida (yetkazib beruvchini qidirish, birlamchi tekshiruv, yuridik va komplayens-tekshiruv, shartnoma tuzish, shartnoma ijrosi davomida monitoring) kontragentlarni tekshirish;
- mijozlar, xalqaro pul o‘tkazmalari tizimlari, transchegaraviy to‘lov provayderlari va boshqa hamkorlarni KYC/KYB tamoyillari asosida tekshirish, benefitsiar egalarni aniqlash;
- kontragentlarni milliy va xalqaro sanksiya ro‘yxatlari, PEP ro‘yxatlari va yuqori xavfli yurisdiksiyalar ro‘yxatlari bo‘yicha tekshirish;
- Bank xodimlari, affillangan shaxslar va kontragentlar o‘rtasidagi aloqadorlikni, manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash;
- davlat reyestrlari va ochiq manbalardagi dolzarb ma’lumotlarni Bankning ichki tizimlarida (ABS, xaridlar tizimi, AML tizimi, CRM) bevosita olish;
- tekshiruv natijalarini hujjatlashtirish va ularni nazorat qiluvchi organlar hamda ichki audit uchun saqlash.

4. Xizmatdan foydalanuvchilar

№	Bo‘linma	Foydalanish maqsadi	Foydalanuvchilar soni
1	Bankning barcha tarkibiy tuzilmalari	KYC/KYB, sanksiya va PEP tekshiruvlari, hamkorlarni tekshirish, monitoring	Cheklanmagan
2		Yetkazib beruvchi va pudratchilarni tekshirish	
3		Aloqadorlik tahlili, xodimlarni tekshirish, firibgarlik xavfini baholash	
4		Shartnoma tuzishdan oldin yuridik tekshiruv, sud ishlari tahlili	
5		Qarz oluvchi va garovga qo‘yuvchilarni dastlabki tekshirish	
6		Nomzod va xodimlarni manfaatlar to‘qnashuviga tekshirish	
7		Tekshiruvlar va audit jurnalini ko‘rib chiqish (faqat o‘qish huquqi)	

5. Xizmatlar tarkibi va bajarish muddatlari

№	Ishlar (xizmatlar) mazmuni	Muddat	Natija
1	Xizmatning 8-bo‘limda ko‘rsatilgan barcha modullaridan foydalanish imkoniyatini taqdim etish	Shartnoma imzolangandan keyin 10 ish kuni ichida	Kirish imkoniyati berilganligi to‘g‘risida xat
2	Foydalanuvchi hisoblari va rollarni bo‘linmalar bo‘yicha sozlash, Bankning yagona autentifikatsiya tizimiga ulash (Q)	Kirish berilgandan keyin 5 ish kuni ichida	Sozlangan rollar matritsasi
3	Integratsiya uchun sinov muhitini (sandbox) va API hujjatlarini taqdim etish	Bank so‘rovidan keyin 5 ish kuni ichida	Sandbox’ga kirish, API hujjatlari
4	Xizmatni API orqali Bankning ichki tizimlari bilan integratsiya qilishda maslahat va texnik ko‘mak berish	Integratsiya yakunlangunga qadar	Ishlaydigan integratsiya
5	Foydalanuvchilarni o‘qitish (kamida 2 ta seans, onlayn yoki oflayn), foydalanuvchi qo‘llanmasini taqdim etish	Kirish berilgandan keyin 15 ish kuni ichida	O‘qitish dalolatnomasi, qo‘llanma
6	Qabul qilish sinovlarini o‘tkazishda ishtirok etish (13-bo‘lim)	Bank belgilagan muddatda	Topshirish-qabul qilish dalolatnomasi
7	Uzluksiz xizmat ko‘rsatish, ma’lumotlarni yangilash, texnik qo‘llab-quvvatlash	5 yil davomida	Oylik SLA (Service LevelAgreement-Xizmat ko‘rsatish darajasi to‘g‘risidagi kelishuv)hisobotlari

6. Ijrochiga qo‘yiladigan talablar

- Ijrochi taklif etilayotgan Xizmatning huquq egasi bo‘lishi yoki huquq egasidan Xizmatni taqdim etish uchun tasdiqlangan huquqqa ega bo‘lishi kerak (tasdiqlovchi hujjat ilova qilinadi).
- Ijrochi O‘zbekiston Respublikasida shunga o‘xshash xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha kamida 2 (ikki) yillik tajribaga ega bo‘lishi va kamida 2 (ikki) ta bank yoki moliya tashkilotiga xizmat ko‘rsatganligini tasdiqlovchi ma’lumot (shartnoma nusxasi yoki tavsiyanoma) taqdim etishi kerak.
- Ijrochi va uning benefitsiar egalari milliy va xalqaro sanksiya ro‘yxatlarida bo‘lmasligi kerak.
- Ijrochi shaxsga doir ma’lumotlar bazalari mulkdori yoki operatori sifatida qonunchilikda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lishi kerak.

7. Ma’lumot manbalari va ularni yangilashga qo‘yiladigan talablar

Xizmatdagi ma’lumotlar faqat davlat reyestrlari, vakolatli organlarning rasmiy manbalari va qonuniy asosda olingan ochiq manbalardan shakllantirilishi kerak. Ijrochi ma’lumotlarning davlat reyestrlaridagi ma’lumotlarga to‘g‘ri mos kelishi uchun javobgar hisoblanadi. Har bir ma’lumot uchun manba va oxirgi yangilangan sana ko‘rsatilishi shart.

№	Manba	Ma’lumotlar turi	Yangilanish davriyligi
1	Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning yagona davlat reyestri	Ro‘yxatdan o‘tish, maqom, rahbar, ta’sischilar, ustav fondi, manzil, IFUT	Kamida kuniga 1 marta
2	Soliq organlari ochiq ma’lumotlari	Soliq qarzdorligi, QQS to‘lovchi maqomi, soliq tekshiruvlari	Kamida kuniga 1 marta
3	Sud organlarining ochiq ma’lumotlari	Sud ishlari (iqtisodiy, fuqarolik, ma’muriy), ishdagi maqomi	Kamida kuniga 1 marta
4	Majburiy ijro organlari ma’lumotlari	Ijro ishlari, qarzdorlik	Kamida haftada 1 marta
5	Davlat xaridlari axborot tizimi	Insofsiz ijrochilar reyestri, xaridlardagi ishtirok	Kamida kuniga 1 marta
6	Litsenziyalash va ruxsatnomalar tizimi	Litsenziya, ruxsatnoma, sertifikatlar va ularning amal qilish muddati	Kamida haftada 1 marta
7	Bankrotlik va tugatish to‘g‘risidagi rasmiy e’lonlar	Bankrotlik, tugatish, qayta tashkil etish	Kamida kuniga 1 marta
8	Moliyaviy hisobotlarning ochiq ma’lumotlari	Moliyaviy ko‘rsatkichlar (daromad, foyda, aktivlar)	Ma’lumot e’lon qilinishi bilan
9	Tashqi iqtisodiy faoliyat ma’lumotlari	Eksport-import operatsiyalari, xorijiy kontragentlar	Kamida oyda 1 marta
10	Milliy sanksiya ro‘yxatlari (terrorizm va OQQ tarqatish bilan bog‘liq shaxslar ro‘yxati)	Ro‘yxatga kiritilgan shaxslar	Rasmiy e’lon qilingandan keyin 24 soat ichida
11	Xalqaro sanksiya ro‘yxatlari: BMT Xavfsizlik Kengashi, OFAC (AQSH), Yevropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya va boshqalar	Sanksiya subektlari	Rasmiy e’lon qilingandan keyin 24 soat ichida
12	PEP ma’lumotlar bazasi, FATF yuqori xavfli yurisdiksiyalar va offshor zonalar ro‘yxatlari	PEP, yurisdiksiya xavfi	Kamida haftada 1 marta
13	Ommaviy axborot vositalari va boshqa ochiq manbalar	Salbiy axborot (adverse media)	Kamida kuniga 1 marta

8. Funksional talablar

Taklif etilayotgan barcha talablarni to‘liq hajmda ta’minlashi lozim. Ulardan birortasining mavjud emasligi taklifni texnik topshiriqqa nomuvofiq deb topish uchun asos bo‘ladi.

Kod	Modul / vazifa	Funksional talab
8.1. Asosiy kontragent tekshiruvi		
FT-01	Qidiruv	STIR, yuridik shaxs nomi (to‘liq yoki qisman), jismoniy shaxs F.I.SH. / JSHSHIR, IFUT kodi bo‘yicha qidirish; lotin va kirill yozuvlarida qidirish
FT-02	Kontragent kartochkasi	Maqomi, ro‘yxatdan o‘tish ma’lumotlari, yuridik manzili, aloqa ma’lumotlari, faoliyat turlari, rahbar, ta’sischilar va ulushlari, ustav fondi miqdori

Kod	Modul / vazifa	Funksional talab
FT-03	Xavf omillari	Sud ishlari, soliq qarzdorligi, ijro ishlari, moliyaviy koʻrsatkichlar, oʻtkazilgan tekshiruvlar; bankrotlik, tugatish va insofsiz ijrochilar reyestrlari
FT-04	Ruxsat hujjatlari	Litsenziya, ruxsatnoma va sertifikatlar, ularning amal qilish muddati
FT-05	Ishonchlilik bahosi	Toʻrt darajali shkala (“svetofor”: past, qoniqarli, oʻrta, yuqori xavf) boʻyicha baholash, bahoga ta’sir qilgan omillarni koʻrsatish (baholash metodikasi shaffof boʻlishi kerak)
FT-06	Bahoni moslashtirish	Bank ichki xavf siyosatiga muvofiq baholash omillari va ularning ogʻirligini sozlash imkoniyati
FT-07	Aloqadorlik tahlili	Ta’sischilar va rahbarlar boʻyicha aloqalar tahlili, kamida 3 bosqichli aloqalar zanjirini grafik koʻrinishda tasvirlash; umumiy manzil, telefon, rahbar boʻyicha aloqalarni aniqlash
FT-08	Ommaviy tekshiruv	STIR/JSHSHIR roʻyxatini (kamida 1 000 ta yozuv) fayl orqali ommaviy tekshirish; natijalarni Excel va PDF formatlarida eksport qilish
FT-09	Xulosa	Kontragent boʻyicha xulosani sana, vaqt, foydalanuvchi va ma’lumot manbalari koʻrsatilgan holda PDF formatida yuklab olish
8.2. Oʻzgarishlar tarixi		
FT-10	Tarixni saqlash	Rahbar, ta’sischilar, manzil, ustav fondi, faoliyat turlari va maqomning oʻzgarish tarixini kamida 5 yil davomida saqlash va aks ettirish
FT-11	Taqqoslash	Oʻzgarishdan oldingi va keyingi ma’lumotlarni taqqoslash, oʻzgarishlar xronologiyasi
FT-12	Xavfli oʻzgarishlar	Qisqa muddatda tez-tez oʻzgarishlar (rahbar, ta’sischi, manzil), “ommaviy” manzil va “nominal” rahbar belgilarini aniqlash
FT-13	Eksport	Tarixni Excel va PDF formatlarida eksport qilish
8.3. KYC/KYB, sanksiyalar va AML		
FT-14	Sanksiya tekshiruvi	Yuridik va jismoniy shaxslarni 7-boʻlimda koʻrsatilgan milliy va xalqaro sanksiya roʻyxatlari boʻyicha tekshirish; noaniq moslik (fuzzy matching- Oʻxshashlik boʻyicha solishtirish (noaniq moslashtirish)), transliteratsiya (lotin, kirill, ingliz) va ism variantlarini hisobga olish
FT-15	Moslik natijasi	Moslik darajasini (foizda) koʻrsatish, foydalanuvchi tomonidan moslikni tasdiqlash yoki “yolgʻon moslik” deb belgilash va izoh qoldirish imkoniyati
FT-16	Benefitsiar egalar	Egalik tuzilmasini va yakuniy benefitsiar egalarni aniqlash, ularni sanksiya va PEP roʻyxatlari boʻyicha tekshirish
FT-17	PEP	Siyosiy ahamiyatga ega shaxslarni, ularning oila a’zolari va yaqin aloqadorlarini aniqlash
FT-18	Yurisdiksiya xavfi	Kontragent va uning egalarining FATF yuqori xavfli yurisdiksiyalari va offshor zonalar bilan bogʻliqligini aniqlash
FT-19	Salbiy axborot	Ochiq manbalardan salbiy axborotni (adverse media- Salbiy ommaviy axborot (salbiy media ma’lumotlari)) qidirish va manbaga havola bilan koʻrsatish
FT-20	Xalqaro KYB	Xorijiy kompaniyalar boʻyicha xalqaro registrlar va global manbalardan ma’lumot olish (shu jumladan, xalqaro pul oʻtkazmalari tizimlari va toʻlov provayderlarini tekshirish uchun)
FT-21	Xavfni baholash	Firibgarlik, pul yuvish, terrorizmni moliyalashtirish va korrupsiya xavfini baholash

Kod	Modul / vazifa	Funksional talab
8.4. Tashqi iqtisodiy faoliyat tahlili		
FT-22	TIF ma’lumotlari	Kontragentning tashqi iqtisodiy faoliyati, xorijiy yetkazib beruvchilar va xaridorlar, tovar guruhlari, hajmlar dinamikasi
FT-23	Profilni tekshirish	Kontragentning e’lon qilingan tajribasi va profilini haqiqiy faoliyat koʻrsatkichlari bilan taqqoslash
8.5. Monitoring va bildirishnomalar		
FT-24	Kuzatuv roʻyxatlari	Kontragentlarni alohida va ommaviy ravishda kuzatuvga qoʻyish, boʻlinmalar boʻyicha alohida roʻyxatlar yuritish
FT-25	Bildirishnomalar	Rahbar, ta’sischilar, manzil, maqom, roʻyxatdan oʻtish ma’lumotlari, sud ishlari, soliq qarzdorligi, tugatish/bankrotlik, sanksiya va PEP roʻyxatlariga kiritish boʻyicha oʻzgarishlar haqida bildirishnoma
FT-26	Yetkazish kanallari	Bildirishnomalarni tizim interfeysida, elektron pochta orqali va webhook (hodisa haqida avtomatik xabarnoma) orqali yuborish; bildirishnoma turlari va chastotasini sozlash
8.6. Xodimlar va affillangan shaxslarni tekshirish		
FT-27	Xodimlar aloqasi	Xodimning JSHSHIR boʻyicha yuridik shaxslar bilan aloqasini, ta’sischi yoki rahbar sifatidagi ishtirokini aniqlash
FT-28	Manfaatlar toʻqnashuvi	Xodimlar va Bankning affillangan shaxslari roʻyxatini kontragentlar bilan avtomatik solishtirish va potensial aloqalarni aniqlash
8.7. Audit, hisobotlar va boshqaruv		
FT-29	Audit jurnali	Har bir foydalanuvchining barcha soʻrovlari va harakatlarini (sana, vaqt, foydalanuvchi, soʻrov obekti, natija) oʻzgartirib boʻlmaydigan jurnalda kamida 5 yil saqlash va eksport qilish
FT-30	Tekshiruv dalili	Muayyan sanadagi tekshiruv natijasini (shu jumladan, oʻsha sanadagi sanksiya roʻyxatlari holatini) qayta koʻrish imkoniyati
FT-31	Statistika	Boʻlinmalar va foydalanuvchilar boʻyicha soʻrovlar statistikasi, limitlardan foydalanish hisobotlari
FT-32	Ish jarayoni	Tekshiruv natijasiga mas’ul xodimning xulosasi va izohini kiritish, natijani rahbarga tasdiqlash uchun yuborish

9. Integratsiyaga qoʻyiladigan talablar

Kod	Talab
IT-01	Hujjatlashtirilgan REST API (OpenAPI/Swagger spetsifikatsiyasi bilan); hujjatlar oʻzbek, rus yoki ingliz tillarida
IT-02	API orqali: qidiruv, kontragent kartochkasi, oʻzgarishlar tarixi, sanksiya/PEP tekshiruvi, ishonchlilik bahosi, aloqadorlik ma’lumotlari va ommaviy tekshiruv natijalarini olish
IT-03	Javoblar mashina oʻqiy oladigan formatda (JSON), xulosalar PDF formatida
IT-04	Kuzatuvdagi kontragentlar boʻyicha oʻzgarishlar haqida webhook bildirishnomalari
IT-05	Bitta soʻrovga javob berish vaqti – 95% soʻrovlar uchun 3 soniyadan oshmasligi; cheksiz soʻrov/soniya yuklamani ta’minlash
IT-06	Integratsiya uchun sinov muhiti (sandbox- hodisa haqida avtomatik xabarnoma) test ma’lumotlari bilan
IT-07	API versiyalashtirilishi; API oʻzgarishlari haqida kamida 30 kun oldin xabar berish va eski versiyani kamida 3 oy qoʻllab-quvvatlash

Kod	Talab
IT-08	Bankning ABS, xaridlar tizimi, AML tizimi va CRM tizimlarida kontragent ma’lumotlarini avtomatik tekshirish va boyitish uchun integratsiya imkoniyati
IT-09	Bankning yagona autentifikatsiya tizimi (LDAP/Active Directory, SAML yoki OpenID Connect) bilan integratsiya

10. Axborot xavfsizligi va ma’lumotlar maxfiyligiga qo‘yiladigan talablar

- Barcha ma’lumotlar uzatilishi TLS 1.2 va undan yuqori versiyadagi shifrlangan kanallar orqali amalga oshirilishi kerak.
- Aloqa aknalini Ipsec VPN orqali yoki API ga kirish kalitlar yoki OAuth 2.0 tokenlari orqali, Bank IP-manzillari ro‘yxati (whitelist) bilan cheklangan holda ta’minlanishi kerak.
- Tizimlarni kirib chiqish trafiklarni nazaorat qilishda IPS/IDS tizimlarni ishlatish
- Veb-interfeysga kirishda ikki faktorli autentifikatsiya, parol siyosati va faol bo‘lmagan seansni avtomatik yakunlash qo‘llanilishi kerak.
- Rollar va bo‘linmalar bo‘yicha kirish huquqlarini chegaralash; Bank administratori tomonidan foydalanuvchilarni mustaqil boshqarish imkoniyati.
- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsga doir ma’lumotlarini qayta ishlash “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun talablariga, shu jumladan, ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan serverlarda saqlash talabiga muvofiq amalga oshirilishi kerak.
- Bankning so‘rovlari (qaysi shaxslar tekshirilganligi), kuzatuv ro‘yxatlari va Bank tomonidan yuklangan ma’lumotlar (xodimlar, affillangan shaxslar ro‘yxatlari) maxfiy axborot hisoblanadi. Ijrochi ularni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik, o‘z tahliliy yoki tijorat maqsadlarida foydalanmaslik va boshqa mijozlarga ko‘rsatmaslik majburiyatini oladi.
- Ijrochi Bank bilan maxfiylik to‘g‘risidagi kelishuvni (NDA) imzolaydi va Bank siri hamda shaxsga doir ma’lumotlar oshkor qilinganligi uchun qonunchilikda belgilangan javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.
- Ijrochi Bankning so‘roviga ko‘ra Xizmatning axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlarni (xavfsizlik siyosati, oxirgi zaiflik tekshiruvi (pentest) natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotnoma va boshqalar) taqdim etadi.
- Ijrochi axborot xavfsizligi hodisasi (ma’lumotlar sizib chiqishi, ruxsatsiz kirish) aniqlangan paytdan boshlab 24 soat ichida Bankni xabardor qilishi shart.
- Ma’lumotlarning zaxira nusxalari kamida kuniga 1 marta yaratilishi kerak; tiklash vaqti (RTO) – 8 soatdan, ma’lumotlar yo‘qolishi mumkin bo‘lgan davr (RPO) – 24 soatdan oshmasligi kerak.

11. Xizmat ko‘rsatish darajasi SLA(Service Level Agreement- Xizmat ko‘rsatish darajasi to‘g‘risidagi kelishuv)

Xizmatdan sutkasiga 24 soat, haftasiga 7 kun foydalanish imkoniyati ta’minlanishi kerak. Oylik foydalanish imkoniyati kamida 99,5 % bo‘lishi lozim (rejali texnik ishlar bundan mustasno). Rejali texnik ishlar Bankni kamida 3 ish kuni oldin xabardor qilgan holda, ish vaqtidan tashqari vaqtda (Toshkent vaqti bilan 20:00 dan 08:00 gacha yoki dam olish kunlari) o‘tkaziladi.

Hodisa darajasi	Tavsif	Javob berish vaqti	Bartaraf etish vaqti
Kritik	Xizmat yoki API to‘liq ishlamaydi, sanksiya tekshiruvi ishlamaydi	1 soat	4 soat
Yuqori	Asosiy modullardan biri ishlamaydi yoki ma’lumotlar yangilanmayapti	2 soat	1 ish kuni
O‘rta	Funksiyalar qisman ishlamaydi, aylanma yo‘l mavjud	4 soat	3 ish kuni
Past	Maslahat, kichik xatolar, takliflar	1 ish kuni	Kelishilgan muddatda

Ijrochi har oy Bankka oylik SLA(Service LevelAgreement- Xizmat ko‘rsatish darajasi to‘g‘risidagi kelishuv) hisobotini (foydalanish imkoniyati, hodisalar soni va bartaraf etish vaqti, ma’lumotlarni yangilash davriyligi) taqdim etadi.

12. Texnik qo‘llab-quvvatlash va o‘qitish

- Texnik qo‘llab-quvvatlash ish kunlari soat 09:00 dan 18:00 gacha (Toshkent vaqti bilan) ko‘rsatiladi; kritik hodisalar bo‘yicha – 24/7 rejimida.
- Murojaat kanallari: elektron pochta, telefon, messenjer va murojaatlarni ro‘yxatga olish tizimi (har bir murojaatga raqam beriladi va uning holati kuzatiladi).
- Ijrochi Bank uchun shaxsiy menejer (mas’ul shaxs) tayinlaydi.
- Ijrochi foydalanuvchi qo‘llanmasini o‘zbek va rus tillarida taqdim etadi va uni Xizmatdagi o‘zgarishlarga muvofiq yangilab boradi.
- Ijrochi foydalanuvchilarni o‘qitadi, yangi funksiyalar joriy etilganda qo‘shimcha o‘qitish o‘tkazadi.
- Xizmatdagi xatolar va uzilishlar Ijrochi tomonidan bepul bartaraf etiladi; shartnoma muddati davomida Xizmatning yangilangan versiyalari qo‘shimcha to‘lovsiz taqdim etiladi.

13. Qabul qilish-topshirish tartibi

- Bank Xizmatga kirish imkoniyati taqdim etilgan kundan boshlab 15 (o‘n besh) ish kuni ichida Ijrochi bilan kelishilgan sinov dasturi asosida funksional va API qabul qilish sinovlarini o‘tkazadi.
- Sinovlar ushbu texnik topshiriqning 8-10-bo‘limlaridagi talablar bo‘yicha o‘tkaziladi va natijalari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.
- Nomuvofiqliklar aniqlangan taqdirda Ijrochi ularni 10 (o‘n) ish kuni ichida bepul bartaraf etadi, so‘ngra takroriy sinov o‘tkaziladi.
- Sinovlar muvaffaqiyatli yakunlangandan so‘ng topshirish-qabul qilish dalolatnomasi imzolanadi. Keyinchalik xizmatlar har oy (chorak) dalolatnoma asosida qabul qilinadi.

14. Taklif tarkibiga qo‘yiladigan talablar

Ishtirokchi taklif bilan birga quyidagilarni taqdim etadi:

- ushbu texnik topshiriqning har bir talabiga (FT, IT kodlari bo‘yicha) muvofiqlik jadvali – “bajariladi / bajarilmaydi” belgisi va qanday bajarilishi izohi bilan;

- Xizmatga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjat, tajribani tasdiqlovchi hujjatlar va tavsiyanomalar;
- ma’lumot manbalari ro‘yxati va ularni yangilash davriyligi;
- API hujjatlari (yoki ularning tavsifi) va axborot xavfsizligi bo‘yicha ma’lumotlar;
- Bank mutaxassislariga Xizmatni sinab ko‘rish uchun kamida 5 (besh) ish kuniga bepul sinov (demo) kirish imkoniyati yoki onlayn namoyish;

15. Shartnoma tugatilganda Ijrochining majburiyatlari

- Shartnoma muddati tugaganda yoki muddatidan oldin bekor qilinganda Ijrochi Bankning so‘roviga ko‘ra 20 (yigirma) ish kuni ichida kuzatuv ro‘yxatlari, audit jurnali va tekshiruv xulosalarini mashina o‘qiy oladigan formatda Bankka topshiradi.
- Ma’lumotlar topshirilgandan so‘ng Ijrochi Bank tomonidan yuklangan va Bankka tegishli barcha ma’lumotlarni o‘chiradi va bu haqda dalolatnoma taqdim etadi.

16. Ekvivalentlik

Ushbu texnik topshiriqning barcha majburiy (M) talablariga muvofiq bo‘lgan taqdirda ekvivalent Xizmatni taklif etishga yo‘l qo‘yiladi. Ekvivalentlikni isbotlash majburiyati ishtirokchi zimmasida.

Kelishildi:

J.M.Miralimov 

Z.X.Mamajonov 

M.M.Mirortiqov 

X.Q.Abdullaev 

A.G.Azimov 